

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

RAXMONOVA MAVLUDA ABDUSAMADOVNA

**ABDURAUF FITRATNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINING
YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Raxmonova Mavluda Abdusamadovna

Abdurauf Fitratning ma’naviy-axloqiy qarashlarining
yoshlar tarbiyasidagi o‘rni.....5

Рахмонова Мавлуда Абдусаматовна

Роль духовно-нравственных воззрений Абдурауфа Фитрата
в воспитании молодежи.....23

Rakhmonova Mavluda Abdusamadovna

The role of Abdurauf Fitrat's spiritual and moral views
in youth education.....45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of works published.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

RAHMONOVA MAVLUDA ABDUSAMADOVNA

**ABDURAUF FITRATNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINING
YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.2. PhD /Fal204 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Navruzova Gulchixra Nigmatovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shadmanov Kurban Badriddinovich
falsafa fanlari doktori, professor

Nazarov Qiyom Normirzayevich
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:


Samarqand davlat chet tillar instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "11" noyabr soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (N530 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "30" oktyabr kuni tarqatildi.

(2024-yil "30" oktyabr dagi 1747 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global taraqqiyotning postindustrial davri ko'pvariantli va noxiziqli xususiyatlar orqali ro'y berayotgani – jamiyat ma'naviy qiyofasini yangilash, qadriyatlarni modernizatsiya qilish, ularni tarixiy tajribadan muvafaqqiyatli o'tgan ilmiy meros asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Bu vazifalar yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va insoniyat tarixida saqlanib kelgan ko'p ming yillik ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish, axloqiy bilimlar vorisiyligini ta'minlashning muhim omiliga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan ma'rifatparvar-jadid Abdurauf Fitratning ma'naviy-axloqiy va ilmiy merosini bugungi kun talablari nuqtayi nazaridan ilmiy-nazariy tadqiq etish, XIX-XX asrlar ijtimoiy-axloqiy fikr rivojida konstruktiv-yetakchilik o'rnini, gumanistik g'oyalarining yoshlarni ilm olish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishdagi falsafiy rolini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida yoshlar ta'limi, tarbiyasi masalalari, ularni yangilashning nazariy-metodolik asoslarini ishlab chiqishda Sharq va G'arb tamaddunida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan ilmiy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy ta'limotlar, diniy-irfoniy qarashlarni tadqiq etish va zamonaviy jamiyatga tatbiq etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Buyuk ma'rifatparvarlarning ma'naviy-axloqiy qarashlarini antropotsentrizm, sotsiotsentrizm kabi falsafiy yondashuvlar asosida tadqiq etish global dunyoda yadroviy qurollanish, ekologik bo'hron, antropogenetik pandemiya kabi inson borlig'ini yemiruvchi salbiy omillarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shuning uchun ma'rifatparvat mutafakkir Fitrat asarlarida yoritilgan insoniyat uchun yangi axloqiy muhitda yashash yo'l-yo'riqlari, ta'lim tizimi islohotlariga oid fikrlar va ma'naviy-axloqiy qarashlarining g'oyaviy-tarbiyaviy immunitetni shakllantirishdagi ahamiyatini aniqlash, farzandlarni kamolotga erishtirish uslublari hamda oilaning ma'rifiy jihatlariga doir axloqiy g'oyalarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ma'rifatparvar ajdodlarimizning faoliyatini tadqiq etish, inson qadri ulug'lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda. "O'z mohiyat e'tiboriga ko'ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo'lgan jadidchilik harakatining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, ushbu harakat namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o'ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda"¹. Shu nuqtayi nazardan yoshlarni ma'naviy barkamol inson sifatida tarbiyalash va barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashda Abdurauf Fitrat qarashlaridagi vatanparvarlik, insonparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalarining hamda oila farovonligini ta'minlash mezonlarini falsafiy asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. "Жадидлар: миллий ўзлик, истиқлол ва давлатчилик ғоялари" мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига. 11.12.2023 <https://president.uz/uz/lists/view/6919>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 30-maydagi PQ-201-son “Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Abdurauf Fitratning ma’naviy-axloqiy merosi, barkamol avlodni tarbiyalashdagi o‘rniga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, jahonda Abdurauf Fitrat shaxsi, ilmiy-ijodiy faoliyati, ma’naviy merosi A.Xolid, E.Olvort, I.Baldauf, E.Lazzerini, A.Benningson, H.Komatsu, I.Yolqin, T.Kosaoglu, Y.Avji, E.Nabi kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan².

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari olimlaridan Y.Bertels, G.Ashurov, R.Hodizoda, A.Badriy, N.Xotamov, I.Usmonov, K.Rasulov, N.G‘aforov,

² Khalid Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998.; Allworth E. The preoccupations of Abdurauf Fitrat, Bukharah nonconformist: an Analysis and list of his writing. – Berlin: Buch, 2000.; Baldauf Ingeborg. Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World // Die Welt des Islams, New Ser. Vol.41, Issue 1. (Mar., 2001).; Edward Lazzerini. Beyond Renewal. The Jadid Response to Pressure for Change in the Modern Age’. Muslim in Central Asia. Expressions of Identity and Change, EdF Jo-Ann Gros, Durham London, 1992, – PP. 151-166; Bennigsen A. Lapresse et le mouvement national xets lez musulmans de russie avant 1920. Parij, 1964.; Le reformisme musulman en Asie Cehtrale, Cahiers du Monde Russe, Yolume XXXVII (1-2), danvier duin 1996, – P. 242.; Hisao Komatsu. Yuz yil bashlarinda Orta Asya’da Turkculuk ve devrim hareketleri. Ankara: Turhan Kitabaev yayinlari, 1993. –SS. 5-8.; Yarkin I. Turkisan’m Cedit (Fikir Adami Yazar ve şair Abdurauf Fitret / Turk KflilflrQ. - 1975. Ocak, - S. 148.; Timur Kocaoglu. Indian Revolutionaries as Metaphor in Modern Uzbek Luterature // Asia Annual. 2004. – P.4.; Avci Y. Fitrat ve Eserleri. - Ankara: 1997. –SS. 5-11. Hisao Komatsu. Yuz yil bashlarinda Orta Asya’da Turkculuk ve devrim hareketleri. Ankara: Turhan Kitabaev yayinlari, 1993. s.5-8; Nabi E. The period literature of Uzbek luterature: The Tajik and Uzbek Literary Prose from 1900 till 1932: The dissertation wrintten for taking PhD. Columbia University, 1975. – PP 240.

S.A.Dyuduanon, V.B.Andreyev, M.I.Bakiyevlar Abdurauf Fitratning badiiy-falsafiy merosini tadqiq qilganlar³.

O'zbekistonda taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg'or g'oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojida o'rni va ta'sirini tarixiy nuqtayi nazardan o'rganish D.Alimova, Q.Rajabov, D.Ziyayeva, D.Jamolovalar tomonidan, adabiy merosining o'ziga xos xususiyatlari B.Qosimov, O.Sharafiddinov, H.Boltaboyev, I.G'aniyev tomonidan, shuningdek, Abdurauf Fitratning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlari G.N.Navro'zova, R.T.Shodiyev, Q.Shodmonov, Q.N. Nazarov, M.N.Melikova, J.Yaxshilikov, S.Ahmedov, U.Dolimov, E.Yusupov, M.Raximova, D.Tog'ayevalar⁴ tomonidan tadqiq etilgan. So'nggi yillarda bu muammo bo'yicha, davr talabidan kelib chiqib, D.Amriddinova, X.Ashurova, A.Saloxov, S.Abdivoxidov, Yo'.Isomiddinovlar ilmiy izlanishlar olib borib, jadidchilik harakatini maxsus o'rganganliklarini qayd etish joiz⁵.

³ Bertels Ye.E. Bibliograficheskiye ocherki o deyateliyax obshestvennix nauk O'zbekistana. [t.1], T., 1976.; Ашуров Г.Становление Садриддина Айни как просветителя и мыслителя // Джашинномаи Айни. Джилди IX. - Душанбе: Дониш, 2002.- С. 112.; Hodizoda R. Adabiyoti tojik: Asrxi XVI-XIX va ibtidoi asri XX. - Dushanbe: Maorif, 1988. Sah. 372.; Badriy A. "Yosh buxoroliklar kim?" // "Yosh buxoroliklar: bechora xalq dehqonlar uchun yaxshimi, yomonmi?" Moskva, 1919. -С. 151.; Хатамов Н. Бухарские джадиды и основные этапы их деятельности. Душанбе. 2000. 58 стр.; Усмонов И. Чароғи маърифат // Садои Шарк, 1991. № 8. – С. 106-114; Расулов К. История культуры таджикского народа в первой четверти XX века: Дисс. док.ист. наук. Душанбе. 2010. 362 стр.; Гафаров Н. История культурно-просветительской деятельности джадидов в Бухарском эмирате. - Хужанд, 2000. 176 стр; Стефан А. Дюдуаньон. Кадымизм: элементы социологии мусульманского традиционализма в татарском мире и в Мавераннахре (конец XVIII – нач XX вв.) – Казань: Институт истории АН Татаристана, 1997; Андреев В.Б. Новые течения в Бухаре (О книге Фитрата "Мунозара") // Туркестанские ведомости. 1916. – С. 120.; Бакиев М.И. История просветительного движения и свободомыслия в Средней Азии, конец XIX – начало XX века: Дисс. док.ист. наук. Душанбе. 2000. 282 стр.;

⁴ Наврӯзова Г.Н., Абдурауф Фитратнинг "Оила" асарининг бугунги кундаги аҳамияти // Фалсафа ва ҳуқуқ фанларининг долзарб масалалари // Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. 1-китоб. Т.-2010. –Б. 54-56.; Шодиев Р. Ўрта Осиё тасаввуфи ва ахлокий кадриятлар. – Самарқанд, "Зарафшон", 1992.; Шадманов К.Б. Философия и духовность мусульманского востока и ренессансный запад в свете преемственности и взаимообусловленности гуманитарной культуры // Башкирский язык в поликультурном пространстве. Вухого – 2018. – С. 334-339.; Назаров Қ.Н. Ўзбек фалсафаси. "Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, Т.: 2013, Б. 212.; Меликова М.Н. Ўзбекистон ёшларининг тарихий онги (ижтимоий-фалсафий таҳлил) Автореферат. Дисс. Самарқанд – 2019., "Alisher Navoiy ma'naviy merosining ijtimoiy-falsafiy mohiyati". Diss. Avtor. Samarqand – 2023., Историческое сознание в контексте патриотического воспитания молодежи // Қадимий Жиззах воҳаси-Марказий Осиё цивилизацияси тизимида (сиёсий, иқтисодий, маданий ҳаёт). Samarqand – 2017. -С. 261.; Yaxshilikov J.Y., Milliy g'oya O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik // Toshkent.: Cho'lpon. – 2018.; Axmedov S.A. Ensiklopediya xopkovodstva v 2 tomax. – Glavnaya redaktsiya Uzbekskoy sovetskoy ensiklopedii, 1985 – Tom 1. – С. 48.; Dolimov U. "Jadidchilikning tamal toshi", "Jahon adabiyoti", 2010 yil, 1-son.; Yusupov E. E.Yusupov Inson kamolotining ma'naviy asoslari. - T.: Universitet, 1998, 184-b.; Raximova M. "Abdurauf Fitratning axloqiy-falsafiy ta'limoti". Diss. Avto. Samarqand – 2022.; D.Tog'ayeva. "Jadidlar ma'naviy merosida oila masalasi va uning falsafiy tahlili". Diss. Avto. Buxoro – 2022.;

⁵ Алимова Д.А. Историческое мировоззрение джадидов и их проекция будущего Туркестана // Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан. Т.: Фан, 1996.; Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ҳақиқати (1920-1924 йиллар). –Тошкент: "Маънавият", 2002. –Б. 144.; Ziyayeva D. Buxoro amirligi va Xiva xonligi Rossiya protektorati ostida. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2003. – Б.223.; Jamolova D. Бухородаги ислохотчилик ҳаракатининг турли гуруҳлари ва улар ўртасидаги муносабатлар. Илмий хабарнома, АДУ, №3 2016. –Б.55-58.; Қосимов Б. Маслакдошлар: Бехбудий, Ажзий, Фитрат. Тошкент: Шарк НМК, 1994. Б. 74; Шарафуддинов О. Абдурауф Фитрат ва "Ҳинд сайёҳи" қиссаси / Сардафтар саҳифалари. Мақолалар, хотиралар. Тошкент: Ёзувчи, 1999. Б. 114-147. Болтабоев Ҳ. Хорижий фитратшуносликдан лавҳалар / Фитрат ва жади́дчилик. Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. - Б. 225-273. Болтабоев Ҳ. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси: Филол. фанлари долтори дисс. Тошкент, 1996; Ғаниев И.М. Фитрат драмалари поэтикаси: Филол. фанлари д-ри... дисс. Тошкент, 1998.; D.Amriddinova, "Samarqand jadidchiligining ijtimoiy-falsafiy mohiyati" mavzusidagi doktorlik

Mazkur tadqiqotlarda O'zbekistonda ma'rifatparvar-jadidlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari tadqiq qilingani nazariy-metodologik baza sifatida xizmat qiladi, albatta. Yuqoridagi ilmiy izlanishlardan farqli ravishda ushbu dissertatsiyada Fitrat ma'naviy-axloqiy merosining yosh avlodni barkamollik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati, uning vatanparvarlik, insonparvarlik va ezgulik haqidagi g'oyalari va o'ziga xos axloqiy tarbiya konsepsiyasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, IV band "O'zbekiston tarixini o'rganishning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy muammolari: yechim, qiyosiy tahlil" (2020-2025 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Abdurauf Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarining ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash va barkamol avlodni ma'naviy sog'lom etib tarbiyalashdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Fitratning ma'naviy-axloqiy va falsafiy dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan muhitning tadrijiy bosqichlarini tadqiq etish;

Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarining tarixiy-falsafiy mohiyatini ochib berish;

Abdurauf Fitrat asarlaridagi jamiyat ma'naviy-axloqiy rivojiga doir qarashlarini tahlil qilish;

mutafakkirning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga doir qarashlarini ilmiy asoslash;

ma'rifatparvar Fitratning axloqiy tarbiya konsepsiyasining zamonaviy-axloqiy muammolarni hal qilishdagi o'rnini ochib berish;

taraqqiyparvar Fitrat g'oyalari asosida inson qadri ulug'lanadigan adolatli jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etish dasturlarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida Abdurauf Fitrat ta'limotidagi ma'naviy-axloqiy g'oya va qarashlar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini Abdurauf Fitratning "Oila" asaridagi jamiyat ma'naviy-axloqiy rivojiga doir qarashlarini, ta'lim-tarbiya uyg'unligi va axloqiy tarbiya konsepsiyasini hamda jamiyatni rivojlantirish istiqbollari tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Markaziy Osiyo tasavvufiy tariqatlari va dunyoviy ilm-fan garmoniyasini o'zida mujjlashtirgan ma'rifatparvar Fitrat dunyoqarashidagi "saodati dorayn"

dissertatsiyasi, X.Ashurova "Samarqand jadidlari ma'naviy merosining ijtimoiy-falsafiy tahlili" (DSc) dissertatsiyasi orqali; A.Saloxov "Buxoro ma'rifatparvarlari g'oyalari yoshlar tolerantligini shakllantirish muammolarining falsafiy tahlili". Diss. Avtor. Buxoro – 2022.; S.Abdixodov "Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy jihatlari va hozirgi zamon" mavzusida doktorlik (PhD) dissertatsiyasi.

va “hayot g‘oyasi”ning sog‘lom tana, o‘tkir aql va yuksak ma’naviyat kabi omillari XIX-XX asrlar ijtimoiy-axloqiy fikrlar rivojida oilaparvarlik, millatparvarlik, vatanparvarlik tamoyillarini targ‘ib etishdagi konstruktiv-yetakchilik o‘rinni egallagani aniqlashtirilgan;

Abdurauf Fitratning dunyoviy va diniy ilm taraqqiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ontologik qarashlaridagi shaxsiy (tabiiy ehtiyojlarni qondirish) va ijtimoiy (nikoh, oilaviy munosabatlar, axloqiy yetuklik) borliq shakllarining yoshlar falsafiy dunyoqarashini kengaytirish, ma’naviy darajasini yuksaltirish, oilaviy munosabatlarni mehr-muhabbat asosida tashkil etish hamda zamonaviy bilim egallashtirishdagi falsafiy ahamiyati ochib berilgan;

Ma’rifatparvar Fitrat ijodiga ilmiy-falsafiy yondashuv hamda gnoseologik qarashlaridagi fitriy (inson tabiatiga avvaldan berilgan) va kasbiy (ilm olish va tajriba asosidagi) aqlga oid g‘oyalari asosida ta’lim-tarbiya tizimida aqlni ezgu sifatlar bilan boyitish, idrokni isloh etish, ilmu-irfon uyg‘unligini ta’minlash, yoshlarga jismoniy, aqliy va ma’naviy tarbiyadan iborat ko‘p tarkibli tarbiya berish sistemasini takomillashtirish zarurati asoslab berilgan;

Fitratning “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” va “Rahbari najot” (“Najot yo‘li”) asarlarida ilgari surilgan ma’naviy-axloqiy tarbiya konsepsiyasidagi iroda kuchi va ixtiyor erkinligi, mayl va istak tarbiyasi kabi tamoyil va me’yorlar hamda inson ruhining shaxsiy (baxt, faoliyat, izzat-nafs) ijtimoiy (aloqa, mehr – muhabbat, ibrat olib, e’tiborda bo‘lish) va oliy (bilish, go‘zallikka intilish, fazilatga muhabbat) mayllari ma’rifiy jamiyatda uzluksiz ma’naviy tarbiyaning indikatorlari sifatida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Abdurauf Fitratning ilmiy, adabiy, ma’rifiy asarlaridagi vatanparvarlik, insonparvarlik, ma’rifatparvarlik hamda Vatan ravnaqi, millat ozodligi uchun kurash haqidagi g‘oyalari bugungi murakkab va tahlikali zamonda bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish hamda milliy istiqlolni mustahkamlash omili ekanligi isbotlab berilgan;

“Oila” va “Rahbari najot” (“Najot yo‘li”) asarlari asosida ishlab chiqilgan axloqiy tarbiya konsepsiyasidagi ijtimoiy mayllarning (aloqa mayli, o‘zgalarga nisbatan mehr-muhabbat mayli, ibrat olib e’tiborda bo‘lish mayli) inson ma’naviy-axloqiy barkamolligining bosqichlari hamda oila farovonligini ta’minlash va yoshlarni baxtli qilish mezonlari sifatida asoslab berilgan.

ilmiy-falsafiy dunyoqarashi yuksak, ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol insonni tarbiyalashda milliy an’analarga sodiqlik, insof va diyonat, saxovat, mardlik va shijoat, tadbirkorlik, iffat, andisha, hayo kabi sharqona fazilatlarni ma’naviy tarbiyaning indikatoriga aylantirishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma’lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, tavsiyalar amaliyotda

joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkurini yuksaltirish, barkamol avlodni tarbiyalash, ma'naviy-axloqiy merosni ta'lim-tarbiya, ilm-fan sohasiga keng tatbiq etishga, jadidlarning milliy davlatchilik va mintaqaviy o'ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli tadqiq etishda nazariy-metodologik asos sifatida, shuningdek, yoshlar o'rtasida ma'rifatparvar-jadidlarning g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlarini milliy istiqlolni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashni da'vat etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati davlat, jamoatchilik tizimlari va ma'naviy-ma'rifiy markazlar, ijtimoiy-siyosiy institutlar, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish tuzilmalari, nodavlat-notijorat tashkilotlari va boshqa turdagi fuqarolik jamiyati infratuzilmalarining yoshlar tarbiyasini amalga oshirish, uning zamonaviy metodikalarini va zamonaviy ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimini ishlab chiqish, ma'rifatparvar-jadidlarning milliy istiqlolimiz ma'naviy asoslarini yaratishdagi fidoyiliklari, boy ilmiy-ijodiy meroslarini chuqur o'rganish va faol targ'ib etish ishlarni yanada kengaytirish, Qatag'on qurbonlari muzeylari fondlarini boyitib borish va ekspozitsiyalarni yaratish, yangilash, yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish va ta'lim tizimini takomillashtirishga oid darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, monografiyalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Abdurauf Fitrat va XX asrda ma'naviy-axloqiy fikr rivojini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Markaziy Osiyo tasavvufiy tariqatlari va dunyoviy ilm-fan garmoniyasini o'zida mujassamlashtirgan ma'rifatparvar Fitrat dunyoqarashidagi "saodati dorayn" va "hayot g'oyasi"ning sog'lom tana, o'tkir aql va yuksak ma'naviyat kabi omillari XIX-XX asrlar ijtimoiy-axloqiy fikrlar rivojida oilaparvarlik, millatparvarlik, vatanparvarlik tamoyillarini targ'ib etishdagi konstruktiv-yetakchi o'rinni egallaganiga oid xulosalar va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan OT-F1-88-son "O'zbekistonda ijtimoiy siyosiy va ma'naviy taraqqiyotida tolerantlik tamoyilining tutgan o'rni (qadimgi davrdan to hozirgi vaqtga qadar)" (2017-2020 yy) fundamental ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan. (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2022-yil 27-sentabrdagi 04/11-5901-son ma'lumotnomasi). Natijada, mamlakatimiz yoshlari, xususan, oliy o'quv yurtlari talabalari ta'lim-tarbiyasida Abdurauf Fitrat ta'limotining o'ziga xos xususiyatlari, falsafiy, ma'naviy-axloqiy qarashlarning yangicha nazariy-uslubiy yondashuvlardan kelib chiqqan holda tahlil etishga va mustahkamligini ta'minlashda xizmat qilgan;

Abdurauf Fitratning dunyoviy va diniy ilm taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan ontologik qarashlaridagi shaxsiy (tabiiy ehtiyojlarni qondirish) va ijtimoiy

(nikoh, oilaviy munosabatlar, axloqiy yetuklik) borliq shakllarining yoshlar falsafiy dunyoqarashini kengaytirish, ma'naviy darajasini yuksaltirish, oilaviy munosabatlarni mehr-muhabbat asosida tashkil etish hamda zamonaviy bilim egallashdagi falsafiy ahamiyatiga doir ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalaridan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatida, jumladan, 2022-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi "VI. Aholining Internetdagi jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga oid chora-tadbirlar"ning 31-bandi "Buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi, ularning ibratli hayot yo'li hamda jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga qo'shgan hissalarini bo'yicha ma'lumotlar bilan xalqaro Internet tarmog'ini boyitib borish"da foydalanilgan. (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-yil 14-sentabrdagi 263-son ma'lumotnomasi). Natijada, jamiyatda, oilada sog'lom muhitni shakllantirish, yoshlarni hayotga tayyorlashda ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirof tuyg'usini shakllantirish, har jihatdan barkamol etib tarbiyalash, zamonaviy ta'lim-tarbiyani shakllantirishga oid targ'ibot dasturlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

Ma'rifatparvar Fitrat ijodiga ilmiy-falsafiy yondashuv hamda gnoseologik qarashlaridagi fitriy (inson tabiatiga avvaldan berilgan) va kasbiy (ilm olish va tajriba asosidagi) aqlga oid g'oyalari asosida ta'lim-tarbiya tizimida aqlni ezgu sifatlar boyitish, idrokni isloh etish, ilmu-irfon uyg'unligini ta'minlash, jismoniy, aqliy va ma'naviy-axloqiy tarbiyadan iborat ko'p tarkibli tarbiya berish sistemasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy yangiliklardan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan o'tkazilgan diniy-ma'rifiy tadbirlarida, ilmiy jamoatchilikni va yoshlarni keng xabardor etish hamda ilmiy-amaliy materiallar bazasini yaratishda hamda O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazining tadqiqotlar, metodologik yondashuvlarni takomillashtirish, madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy loyihalarni ishlab chiqishda foydalanilgan (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2022-yil 26-sentabrdagi 02/476-son va O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazining 2023-yil 13-sentabrdagi 08-17/659-son ma'lumotnomalari). Natijada, oilada farzand tarbiyasi, uning dunyoqarashini shakllantirishda ajdodlarimiz merosi, ularning hozirgi kun yoshlarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi ijobiy ta'siri borasidagi bilim darajasi, ilmlarni o'rganishga bo'lgan hatti-harakatlarni keng miqyosda rivojlantirish va aqliy salohiyatini yuksaltirish imkonini berib, Abdurauf Fitrat ta'limotining o'ziga xos xususiyatlari, falsafiy-axloqiy qarashlarning yangicha nazariy-uslubiy yondashuvlardan kelib chiqqan holda tahlil etishga hamda islom tarixi, falsafasiga oid o'rnini yoritish, nodir qo'lyozma manba hamda arxiv hujjatlarini ilmiy muomalaga kiritish uchun tayyorlangan to'plam va kitoblar mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

Fitratning "Oila" va "Rahbari najot" ("Najot yo'li") asarlarida ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy tarbiya konsepsiyasidagi iroda kuchi va ixtiyor erkinligi, mayl

va istak tarbiyasi kabi tamoyil va me'yorlar hamda inson ruhining shaxsiy (baxt, faoliyat, izzat-nafs), ijtimoiy (aloqa, mehr – muhabbat, ibrat olib, e'tiborda bo'lish) va oliy (bilish, go'zallikka intilish, fazilatga muhabbat) mayllariga oid yangiliklar va ilmiy natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil davomida efirga uzatilgan “Assalom Buxoro”, “Moziy bisotidan”, “Buxoro Sharq gavhari”, “Zamondosh” teleko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 30-sentyabrdagi 569-son ma'lumotnomasi). Natijada, teletomoshabinlarga Abdurauf Fitratning ma'naviy-axloqiy va falsafiy qarashlarining yangicha nazariy-uslubiy yondashuvlardan kelib chiqqan tahlili yuzasidan kerakli ma'lumotlarni olish imkonini bergan hamda buyuk jadid ajdodlarimiz ta'limotlari haqida bilimlarini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalari aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (6 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Abdurauf Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida buyuk jadid mutafakkiri, birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitratning ilmiy merosi turli soha olimlari tomonidan tadqiq etilib kelinayotganligi, ma'rifatparvar dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy muhit tahlil etilgan.

Abdurauf Fitrat ijodiga teranlik, kengqamrovlilik, serqirralilik, murakkablik xususiyatlarining xos bo'lishi va unda adib yashab o'tgan davr ruhiyatidagi keskinlikning aks etishi tasodifiy hol emas. O'zbek xalqi tarixidagi muhim voqealar, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi g'oyaviy kurashlar, tarixiy shaxslar va inqiloblar uning dunyoqarashiga ta'sir etmay qolmadi. Uning ijodini shakllantirgan muhim omillardan biri sifatida adib yashagan davr - XIX asr oxiri, XX asr

boshlaridagi Buxoro va Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotiga murojaat qilish muhim ahamiyatga ega. Bu Fitrat ijodining murakkabliklarini, xususiyatlarini bir butunlikda teran his qilishga yordam beradi.

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat (1886 yilda Buxoro shahrida tug'ilgan - 1938 yilda Toshkentdagi Bo'zsuv qatlgohida otilgan, ya'ni qatag'on etilgan) – faylasuf, yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos va siyosatshunos olim, davlat va jamoat arbobidir. Fitratning tug'ilgan yili bahsli bo'lib, manbalarda turlicha ko'rsatilgan. Hatto Fitratning o'zi Jalil Boybo'latovga ochiq xat sifatida yozilgan “Yopishmagan gajjaklar” maqolasida: “Men Osiyoning eng diniy markazlaridan bo'lg'an Buxoroda 1884 yilda tug'ildim”⁶ deb e'tirof etganligiga aniqlik kiritilgan. Ammo boshqa ko'pgina manbalarda Fitratning tug'ilgan yili sifatida 1886 yil sanasi ko'rsatilgan. Shuningdek, u bilan zamondosh bo'lgan S.Ayniy: “Abdurauf Fitrat Buxoriy - tug'ilgan yili 1304 hijriy (ya'ni milodiy 1886 yilga to'g'ri keladi) deb yozadi”⁷. Shu faktlardan kelib chiqib, Fitratning “Yopishmagan gajjaklar” maqolasiga ilova qilingan o'z Tarjimai holida tug'ilgan yili sanasi sifatida 1884 yilning ko'rsatilgani texnik xato ekanligi isbotlab berilgan.

Dissertant fikricha, Fitrat XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlarining umumfalsafiy merosi tarixida sezilarli iz qoldirgan ma'rifatparvar-jadidlarning eng yirik namoyandalaridandir. Fitrat o'zining boy ma'naviy merosi tufayli faqatgina mintaqa xalqlari e'zoziga musharraf bo'lib qolmasdan, jahon falsafasi xazinasida alohida ehtiromga sazovor bo'lgan siymolardan bo'lib hisoblanadi. Fitrat ijodi bilan uzoq yillardan beri shug'ullanib kelayotgan taniqli olim E.Olvort ham: “Fitrat o'z zamonasining eng zukko, aql-zakovatli faylasufi va o'z davrining madaniy markeri edi”⁸ – deya e'tirof etadi. Uning adabiy taxallusi bo'lgan “Fitrat” arab tilidan olingan so'z bo'lib, manbalarda unga turlicha talqin berilgan. “Navoiy lug'ati”da Fitrat so'zi “tabiat, tug'ma tabiat, yaratilish” deb izohlangan⁹. Fitrat so'zning birinchi lug'aviy ma'nosi bu “xilqat” “yaratmoqlikdir”, ikkinchi ma'nosi - “tabiat”, “insonning tabiiy sifati va xislati”, uchinchi (majoziy, ko'chma) ma'nosi “aql-zako”¹⁰dir. “Fitrat” - tug'ma iste'dod¹¹, porlamoq degan ma'nolarni ham, “zukko, dono, bilimdon” ma'nolarini ham anglatadi¹². Abdurauf Fitrat yoshlik chog'larida, talabalik yillarida yozgan ayrim g'azallari va asarlarida “Mijmar” (cho'g'don, xushbo'y narsalar solib tutatiladigan idish) taxallusini qo'llagan bo'lsa ham, asosan, Fitrat nomiga bir umr sodiq qolgan.

Dissertant fikricha, ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri, chunki, ma'naviyat

⁶ Abdurauf Fitrat. Yopishmagan gajjaklar. / Tanlangan asarlar. IV jild. - Toshkent: “Ma'naviyat”, 2006. - B.231.

⁷ Садриддин Айний. Намунаи адабиёти тоҷик. – Москва: Чопхонаи нашриёти марказии халқии Ҷамоҳири шӯравии Сўсиёлистӣ, 1926. –Б. 27.

⁸ Мирзаева З. XX аср ўзбек адабиётининг Америкада ўрганилиши. - Тошкент: “Фан”, 2011. – Б.224-225.

⁹ Bu haqda qarang: Jamolova D. Fitrat yo'li // “Milliy tiklanish” gazetasi. 2022 yil 27 iyul.

¹⁰ Капранов В.А., Ма'суми Н.А. “Farhangi zaboni tojik”. Ikki jildlik. Moskva. “Sovetskaya ensiklopediya”, 1969. -b. 437.

¹¹ Qarang: Ma'naviyat yulduzlari. -Toshkent, 1999. –B.372-377.

¹² Qarang: Муствақиллик изоҳли илмий – оммабон луғат. -Тошкент, 2000.– Б.221-222.

rivojlansagina, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o‘z navbatida, shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan zamin bo‘lib xizmat qiladi. Zero, “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi-bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi-ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”dir¹³.

Fitrat xalqimiz, mamlakatimiz, millatimizning taqdiri, qismati haqidagi taassurotlarini quyidagicha umumlashtiradi: “Ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik, qo‘limiz bog‘landi, tilimiz kesildi, og‘zimiz qoplandi, yerimiz bosildi, molimiz talandi, sharafigimiz yumurildi, nomusimiz g‘asb qilindi, huquqimizga tajovuzlar bo‘ldi, insonligimiz oyoqlar ostiga olindi, to‘zimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har buyrug‘ga bo‘ysundik, butun borlig‘imizni qo‘ldan berdik”¹⁴. Fitrat, Qur‘on hukmiga muvofiq barcha ahli islom millatidan, irqidan qat‘i nazar, bir-birlariga do‘stu mehribon bo‘lishlari lozim, - deb uqtiradi. Mutafakkir shu tariqa islom dini umumbashariy baxt-saodat yo‘lini tayin qilganligini, agar butun dunyoning donolari harakat qilsalar ham, bundan yaxshiroq yo‘l topa olmasliklarini, islom dini tomonidan insoniyatning saodat yo‘li mana shunday go‘zal etib tayinlaganligini e’tirof etadi.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, Abdurauf Fitrat tomonidan yaratilgan yoshlarni ma’rifat va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash muammolariga doir bebaho falsafiy merosda xalqimizning ezgulik, adolat, axloq, ma’naviyat, odob haqidagi g‘oyalari, orzu-umidlari mujassamlashgan. Bugun ushbu qadriyatlar o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy merosi, milliy madaniyatining o‘zagi sifatida o‘rganilmoqda. Diniylik va dunyoviylik o‘ta mutanosib tarzda bo‘lgan Fitrat asarlari hali ko‘p zamonlar olmos singari yangi-yangi qirralarini namoyon etaveradi va shaxs ma’naviyatini boyitishda dasturamal vazifasini bajaradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Abdurauf Fitratning “Oila” asaridagi ma’naviy-axloqiy kategoriyalar tasnifi”** deb nomlangan va unda ma’naviy-axloqiy qarashlarining falsafiy jihatlariga, jamiyatning asosiy bo‘g‘ini va eng kichik hujayrasi bo‘lgan oila, uning a‘zolarining ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, oila osoyishtaligi va farovonligini ta‘minlash uchun oila a‘zolaridan talab qilinadigan ma’naviy fazilatlar kabi masalalar tadqiqiga e’tibor qaratilgan.

Tadqiqotda Sharq va G‘arb olimlarining ko‘plab ilmiy tadqiqotlari bilan tanishib chiqish jarayonida Fitrat oila to‘g‘risidagi bilimlarini mustahkamlab, o‘z davri uchun mukammal yo‘riqnomani dunyoga keltirgani ta’kidlangan. Uning sermashaqqat izlanishlari samarasi bo‘lgan “Oila” risolasi oilaning jamiyat va inson hayotidagi rolini oshirishga, oila a‘zolarining huquqiy-axloqiy me‘yorlarini belgilashga qaratilgandir. “Oila” risolasi birinchi qismi uylanish, mahr, to‘y, er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarni o‘z ichiga olsa, ikkinchi qism farzandlar tarbiyasi

¹³ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. -Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021, - B.267.

¹⁴ Abdurauf Fitrat. Muxtoriyat // Tanlangan asarlar. 3-jild. - Toshkent: “Ma’naviyat”, 2003. –B.198.

va ularning huquqlari bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Mazkur asarda axloqiy fazilatlar, oilaning moddiy tomonlari, uning tashkil topgandan boshlab, buzilishigacha bo'lgan holatlarning axloqiy asoslari to'g'risida ham to'xtalib o'tadi va yoshlarni ma'naviyatli bo'lishga chaqiradi.

“Inson madaniy toifa, ya'ni tabiat hukmi ila bir qabila yoki bir qavm suvratida jam bo'lib bir-birlariga yordam berib yashashlari ma'lum. Kimki ana shu tabiat qonunining doirasidan chiqsa, ya'ni jamiyatdan chetlashsa, shubhasiz, mahv va nobud bo'lgay. Binobarin, vahshiy hayvonlarga o'xshab yolg'iz, yakka-yakka bo'lib yashaganlar. Shu bois ular tabiiy mushkulotlar ostida azob chekib, hayvonlar hujumlaridan halok bo'lganlar. Vaqt o'tishi bilan odamlar jamoa bo'lib yashash lozimligini tushundilar. Ularning birinchi jamoalari “oila” ya'ni “ahli bayt” bo'lgan. Ahli bayt jamoalari asta-sekin rivojlanib qavm va qabila jamoasiga aylangan. Bu muqaddimadan ma'no shuki, oilaning shakllanishi, ... bani Odam madaniyatining asosi ekan¹⁵.

Fitratning fikricha, agar oilada tartib-intizom bo'lsa, uning a'zolari shu xislatlarini ijtimoiy hayotlarida qo'llaydilar¹⁶. Bu esa, ularning o'z xizmat vazifalarini yuksak darajada bajarishlariga sabab bo'ladi. Oilaning odob-axloq, xushmuomalalik, mehnatsevarlik, bag'rikenglik tamoyillari asosida qurilgan bo'lishi insonlar o'rtasidagi munosabat va muloqotlarda o'ta muhim va shaxsning fe'l-atvori, yurish-turishida alohida ahamiyat kasb etadi. Oila uch muhim omil: er, xotin va farzandlardan iborat. Ana shu uch omilning har biri o'ta noziknozik, o'ziga xos jihatlarga ega. Chunonchi, er va xotin uchun uylanish (turmushga chiqish) asosiy muammo bo'lishi bilan birga yagona hisoblangan muhim qirralarga ham ega. Alloma oila qurish borasida: “Uylanish bir erkak va bir ayolning ittifoqidir. Alalxusus, muhabbat va mehr bilan hayotda sherik bo'lish demakdir. Er-xotin mushkulotdan iborat bo'lgan hayot safarida birga bo'lib, jismoniy va ruhiy osoyishtalikka sherik, insoniy vazifalarni bajarishda dastyor, qayg'u va umidsizlik damlarida g'amxo'r, saodat va baxtiyorlik chog'ida bir-birlariga hamdam bo'lishlari lozim”¹⁷ – degan fikrni ilgari suradi.

Dissertatsiyada Fitrat o'zining “Najot yo'li” asarida oila vazifasi, badan tarbiyasi, aqliy tarbiya, axloq tarbiyasi haqida yozgani, bu fikrlarini “Oila” asarida yanada kengaytirib bayon etgani asoslab berilgan. Har ikkala asarda ham mamlakat taraqqiyotining davomchilari bo'lgan yoshlar birinchi navbatda ta'lim va tarbiyani oilada olishlari keng va har tomonlama yoritilgan. Fitrat “Oila” asarining bir bobini “Qizlar ham ilm olishi kerakmi?” deb nomlaydi. Fitratning bu masalani ko'tarishiga sabab: “Farzandlarning kelajakda qanday shaxs bo'lib yetishishlari, ularga onalari qanday tarbiya berganliklariga bog'liq bo'ladi”, - deb ko'rsatadi. Asarning mazkur bobida nafaqat o'z zamonasi uchun, balki bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan shunday ilg'or fikrlar bor: “Biz farzandlarimizni yaxshi xulq

¹⁵ Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. / Tanlangan asarlar. IV jild. - Toshkent: “Ma'naviyat”, 2006. - B.214

¹⁶ Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. / Tanlangan asarlar. IV jild. - Toshkent: “Ma'naviyat”, 2006. - B.228.

¹⁷ Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. / Tanlangan asarlar. IV jild. - Toshkent: “Ma'naviyat”, 2006. - B.230.

egalari qilib tarbiyalashimiz lozim, ya'ni ular iymonli, fidokor, g'ayratli bo'lib ulg'aysinlar. Bu matlabga erishish uchun millat onalari tarbiya va ilm olishlari, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari lozim. Aks holatda xotinlarimiz erkaklardan ko'ra qo'rqqoqroq, zaifroq va g'ayratsiz bo'lganlaridan, bolalarimiz ham ularga o'xshab ketadilar"¹⁸.

Asarning ikkinchi qismida Fitrat bolaning har tomonlama barkamol bo'lib yetishishida axloqiy tarbiyaning o'rni juda katta ekanligi va bunda avvalo ota-ona va muallimlarning o'zlari ham go'zal axloqli bo'lishlari zarurligini ta'kidlaydi. Ota-ona o'z farzandlari tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishlari uchun ular avvalo, farzand tarbiyasi haqida muayyan bilimga ega bo'lishlari kerak. Ularning har ikkisi o'z vazifasini, ota-onalik burchini mukammal ado etishlari, toki ular "Farzandni jisman, aqlan va axloqan kamolga yetishtirib, hayot maydoniga kuchli, aqlli va yaxshi axloq bilan chiqarishi zarur"¹⁹.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, yetuk ma'rifatparvar, zukko faylasuf Abdurauf Fitrat o'zining boy ijodiy merosi va ibratli hayot yo'li bilan insonlarning axloqiy-ma'naviy jihatdan kamol topishlariga ulkan hissa qo'shadi. Ayniqsa, ma'rifatparvar asarlarida vatanparvarlik va ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlar yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Fitrat tomonidan yaratilgan asarlar xalqimizga xos bo'lgan yuksak axloqiy tamoyillarni teran ifodalaganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Fitrat o'z asarlarida ta'lim-tarbiyani kamolot va taraqqiyotga eltadigan asosiy vosita sifatida targ'ib qilganligi bugungi globallashuv davrida muammolarning universal yechimi deyish mumkin.

Dissertatsiyaning uchinchi **"Abdurauf Fitrat ma'naviy-axloqiy qarashlaridan Uchinchi Renessans asoslarini mustahkamlashda foydalanish zarurati"** deb nomlangan bobida Abdurauf Fitratning axloqiy tarbiya konsepsiyasining bugungi kundagi zamonaviy axloqiy muammolarni hal qilishdagi o'rni, axloqiy mayllar va ularning turlari, allomaning yoshlar ta'lim-tarbiyasi orqali jamiyatni rivojlantirish to'g'risidagi fikrlari tadqiq etilgan.

Fitratning sharqona axloq kodeksi, ya'ni, axloqiy tarbiya konsepsiyasi, yoshlarni har tomonlama kamolotga erishtirish yo'llari to'g'risidadir. Fitrat asarlarining deyarli barchasida aynan shu masala markaziy o'rinni egallaydi. Ma'naviy hayot sohalari va ularda ro'y beradigan voqea-hodisalarning bir-biri bilan uzviy bog'liq holda va o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'lishi ushbu sohaning muhim qonunlaridan biridir. Bu jihatdan, O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi davrida jadidlar merosiga nisbatan munosabatning yangi bosqichga ko'tarilayotganini ma'naviy hayotda ro'y berayotgan yangilanishlar jarayonidan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi.


Dissertatsiyada Fitratning axloqiy konsepsiyasida inson mayllarining hissiy bilish bilan bog'liqligi, yoshlarning milliy o'zliklarini anglashlari va kamol topishlari uchun yangi usul maktablarida ilm olishlari muhim ahamiyatga ega

¹⁸ Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. / Tanlangan asarlar. IV jild. - Toshkent: "Ma'naviyat", 2006. - B.98.

¹⁹ Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. / Tanlangan asarlar. IV jild. - Toshkent: "Ma'naviyat", 2006. - B.54.

ekanligiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, Fitrat asarlaridagi g'oyalardan bugungi kunda Yangi O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirishda va Uchinchi Renessans poydevorini qurishda dolzarb ekanligi ta'kidlangan.

Abdurauf Fitratning *axloqiy tarbiya konsepsiyasida* axloqiy mayllar tasnifi va tavsifiga alohida e'tibor berilgan. va inson ruhi mayllari uch qismga: shaxsiy, ijtimoiy va oliy mayllarga bo'lingan²⁰. (Qarang: 1.1-rasm)



1.1-rasm. Inson ruhi mayllari.

Tadqiqotda *shaxsiy, ijtimoiy va oliy mayllarni antropologik tahlil etish natijasida* shaxsiy maylning: *baxt mayli, faoliyat mayli, izzat-nafs* mayllari tasniflangan. Bugungi kunda yosh avlodning ma'naviyati va axloqiy tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'choqlari anchagina bo'lib, oila, bog'cha, maktab, mahalla, OTM, televideniye, internet kabilar shular jumlasidandir. Bular orasida ayniqsa, televideniye va internet alohida o'rin tutadi. Afsuski, shu kunlarda OAVlarda hayosizlik, so'kinish, fahsh, intim tuyg'ularni va yoshlar ongi hamda ma'naviyatiga salbiy ta'sir qiladigan milliy xususiyatlarga zid bo'lgan ko'rinishlarni targ'ib etish, ularni ekranlarda namoyish qilish holatlari ham ko'payib bormoqda.

Mutafakkir Fitrat axloqiy konsepsiyasida muhim o'rin tutadigan ushbu so'zlar ota-ona va muallimlarga go'yoki 100 yillar oldin emas, balki bugungi kunda aytilayotganga o'xshaydi: "Bugun mashaqqat, lekin kelajakda baxt keltiradigan ishlar (masalan, dars va ilm mutolaasi)ni bolalarga buyurishlari, bu ishda ularga chidam, g'ayrat va jur'at talab etilishini, ertaga baxtga erishgandan so'ng, bu baxt zahmat va mashaqqat natijasida yuzaga kelganligini tushuntirishlari lozim, shunda bolalar baxt siridan xabardor bo'ladilar"²¹. Faoliyat mayli endigina shakllanib kelayotgan yosh insonning o'zi va oilasi uchun, qolaversa, jamiyat uchun nimadir, qandaydir harakat qilgisi kelishini anglatadigan tushunchadir. Afsuski, ota-onalar va ustozlar, o'z farzand va shogirdlarini uyda va sinfda qimirlamay o'tirishga, loqaydlikka, Fitrat ta'biri bilan aytganda, faoliyatsizlikka o'rgatmoqdalar.

²⁰ Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. / Tanlangan asarlar. IV jild. - Toshkent: "Ma'naviyat", 2006. - B.293.

²¹ Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. / Tanlangan asarlar. IV jild. - Toshkent: "Ma'naviyat", 2006. - B.294

